

***Ochilov Dostonbek Tohir o'g'li***

*Urganch Davlat Universiteti Ijtimoiy–iqtisodiy fanlar fakulteti Tarix  
(mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha) yo'nalishi 1- bosqich talabasi*

***Annotatsiya:*** Ushbu maqola Aleksandr Makedonskiyning hayotiy faoliyatiga bag'ishlangan. Maqolada Aleksandr Makedonskiyning qanday voyaga yetganligi hamda bosib olgan hududlarida qanday diplomatiya yuritganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

***Kalit so'zlar:*** ko'prik, komediya, Magnum, genotsid, olomon, harbiy strategiya, Fors imperiyasi, Baqtriya, So'g'diyona, Ganga, Arabiston yarimoroli.

***Аннотация:*** Данная статья посвящена жизненной деятельности Александра Македонского. В статье содержится информация о том, как рос Александр Македонский и как он вел дипломатию на завоеванных им территориях.

***Ключевые слова:*** мост, комедия, Магнум, геноцид, толпа, военная стратегия, Персидская империя, Бактрия, Согдиана, Ганг, Аравийский полуостров.

***Abstract:*** This article is devoted to the life activity of Alexander the Great. The article contains information about how Alexander the Great grew up and how he conducted diplomacy in the territories he conquered.

***Key words:*** bridge, comedy, Magnum, genocide, crowd, military strategy, Persian Empire, Bactria, Sogdiana, Ganga, Arabian Peninsula.

Aleksandr turli tarix va madaniyatga ega xalqlarning yetakchisi bo'lgan. Ba'zida mahalliy odatlar va dinni tushunmaganligi bois uning boshqaruvi omadsiz kechgan. Zamonaviy bosqichda Aleksandrning G'arb va Sharq o'rtasida ko'prik qurishga bo'lgan urinishlaridan ko'plab darslar chiqarish mumkin. Aleksandrni kim va qachon birinchi marta buyuk deb ataganini bilmaymiz. Aftidan, bu uning tirikligida sodir bo'lmagan. Tarixchilarning hisoblashicha, uni ilk bor eramizdan avvalgi I asrda Rim

komediyasida “buyuk” deyishgan. Ushbu komediyada Magnum ismi qo'llanilgan, bu lotinchada “buyuk” degani. Eramizdan avvalgi 323-yilda vafot etguniga va eramizning I asriga qadar uni buyuk deya ta'riflash boshlangan. Taxminlarga ko'ra, rimliklarning bunday deyishiga Aleksandr hukmronligi davrida o'limlar sonidan kelib chiqilgan: g'olib rimlik sarkarda Rim ko'chalari bo'ylab olamon orasidan tantanali yurib boriladigan taqdirlash marosimiga qadar 5 ming nafar dushmani o'ldirishi kerak bo'lgan. Aleksandr esa o'z yurishlarida yuz minglab insonlar umriga zomin bo'lgan, hozirgi Afg'oniston va Hindiston hududida butun boshli qabilalarni qirib tashlab, haqiqiy genotsid uyushtirgan. Aleksandr favqulodda qobiliyatli hukmdor edi. Uning qo'l ostidagi ayrimlar xuddi Xudoga sig'ingan kabi uning oldida tiz cho'kkan. U juda yosh – 33 yoshga to'lmay vafot etgan bo'lsa-da, ko'plab ishlarni amalga oshirishga ulgurgan. Ammo uning buyukligi faqat harbiy karyerasiga bog'liq. Aleksandr harbiy strategiya va taktikada daho bo'lgan. Qayerga yurish qilmasin, o'zining askarlaridan ko'proq qo'shinga duch kelgan, biroq doim g'alaba qozongan. Aleksandr bir vaqtning o'zida shoh bo'lish bilan birga mohir sarkarda, siyosatchi, davlat arbobi, diplomat va xalq yetakchisi bo'lgan.

Aleksandr armiyasi Fors imperiyasini egallagandan keyin vataniga qaytmoqchi bo'ladi, ammo Aleksandr jangchilarini Baqtriya va So'g'diyonaga (hozirgi Afg'oniston hududlariga) yurish qilishga ko'ndirgan. Bu hujumning ikkinchi fazasi edi. Baqtriya va So'g'diyona egallangach, Aleksandr Hindistonga yurish qiladi. Panjob tekisligiga kelganda, uning armiyasi isyon ko'targan. “Jangchilar yetarlicha yurish qilib bo'ldik, endi uyga qaytamiz !”, degan. Ushbu isyon Aleksandrga ham sarkarda, harbiy qo'mondon, ham shoh sifatida ishonchsizlik ramziga aylangandi.

Aleksandr Gangaga yetib borishni orzu qilgan bo'lishi mumkin. Chunki u o'sha yerda yashagan xalqlar haqida ko'p gapirgan. Ammo Ganga egallagandan keyin ham uning to'xtashiga hech kim kafolat bermagan. Faqatgina isyon uni uyiga qaytishga majbur qiladi. Aleksandr ortga qaytishni boshlaganda armiya va nihoyat Yunonistonga qaytayapmiz deb o'ylagan, ammo u Arabiston yarimoroliga hujum qilish haqida gapira boshlagan. U eramizdan avvalgi 323-yilda Bobilga yetib kelgan

va janubga yurish qilish rejalarini tuzishni boshlagan. Ammo o'sha yilning 12-iyunida Aleksandr vafot etdi.

Xulosalar: Aleksandr Makedonskiy yosh bo'lishiga qaramasdan o'z davrining yetuk va qudratli davlatini barpo qildi. Bu davlatning paydo bo'lishida otasining xizmatlari ham katta. Otasi davrida yaratilgan qo'shin va o'zi tomonidan ishlab chiqilgan temir intizom hamda yurishlari davridagi qulay ishlangan strategiya orqali davlatni boshqaradi. Yoshlik davridanoq bilimga chanqoq bo'lgan va katta- kichik bilan muomalani o'rganadi. Tarixdan ma'lum hamma hukmdorlar ham otasining davridagi qudratli davlatning yana uzoq yillar yashashi uchun harakat qilishmagan. Davlatning qudratini yanada oshirishga o'zining katta hissasini qo'shgan insonlardan biri Aleksandr Makedonskiydir. Bu davlat tarixi haqida yozma manbalar hamda qilingan tadqiqot ishlari orqali ko'plab ma'lumotlar to'plangan va kelajakda ham bu ishlar davom etadi va tarixning ochilmagan qirralarini ochib berishga xizmat qiladi. Aleksandr Makedonskiy yaratgan imperiya taxti uchun uning diadox (lashkarboshi) lari o'rtasida hukmronlikka intilish kayfiyati kuchayadi. Aleksandr Makedonskiy vafotidan keyin diadoxlar –(lashkarboshilar) o'rtasidagi kurashdan so'ng Makedonskiy davlati 3 qismga bo'linib ketadi. Misrda Ptolomeylar, Yunoniston va Makedoniyada Antigonidlar, O'rta yer dengizining sharqiy qismidan, to shimoli-g'arbiy Hindistongacha bo'lgan hududlar Salavkiylar qo'lida bo'lgan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Rajabov R.R. Qadimgi dunyo tarixi. (Sharq, Yunoniston, Rim ).T.,<>,2009 , 440
2. A.S.Sagdullayev, V.A.Kostetskiy Qadimgi dunyo tarixi (6-sinf darsligi). Toshkent:<>,2017. -192 bet
3. A.Kabirov- “Qadimgi Sharq Tarixi”. <> nashriyoti.Toshkent .2016 .276-280 betlar
4. www.Daryo .uz
5. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2000-2005-yillar.
6. . С.А. Хайдаров. (2020). Узбекистан тарихини уқитишда "Зафарнома"дан фойдаланиш имкониятлари.
7. Сулаймон Амиркулович Хайдаров. (2020). Тарих дарсларида интеграциялашган технологиялардан фойдаланиш.